




# SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT  
TIBBIYOT UNIVERSITETI  
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



## O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON TA'LIM HAMKORLIGI YANGI BOSQICHDA

O'zbekiston va Tojikiston Oliy ta'lif muassasalarini rektorlarining II forumi o'tkazildi. Forumda ikki davlat OTMlari o'rtaida o'zaro hamkorlikka asoslangan ko'plab shartnomalar imzolandi.

Shu jumladan, Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda Tojikiston davlat tibbiyot universiteti o'rtaida ham hamkorlik memorandumi imzolandi. 16-aprel kuni forum delegatsiyasi Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Delegatsiya dastlab Samarqand davlat universiteti bo'ldi. Tashrif doirasida viloyatda oly va professional ta'limning tashkil etilishi hamda yaratilgan sharoitlar ko'zdan kechirildi. Shuningdek, Tojikiston davlat tibbiyot universiteti rektori Gulzoda Mahmudshoh Qurbonali Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurdi. Mehmomlarni SamDTU rektori Jasur Rizayev kutib oldi hamda universitet va unda yaratilgan sharoitlar, ta'lif jarayonlari va dasturlari bilan tanishtirdi. Tashrif doirasida hamkorlik masalalari muhokama qilinib, birlgilikda o'quv va ilmiy jarayonlar hamda akademik almashinuvni tashkil etishga kelishidi.

Shuningdek, navbatdan tashqari universitet ilmiy kengashi tashkil etilib, Tojikiston Davlat tibbiyot universiteti rektori Gulzoda Mahmudshoh Qurbonaliga «Samarqand davlat tibbiyot universiteti faxriy professori» unvoni topshirildi. Ilmiy kengashda so'zga chiqqan Jasur Rizayev va Gulzoda Mahmudshoh Qurbonali yangi bosqichga ko'tarilgan mazkur hamkorlikning ikki davlat ta'lif tizimidagi ahamiyatini ta'kidlab, amalga oshirilayotgan bu keng ko'lamli ishlar sog'iqliqi saqlash sohasini yanada rivojlantirishga turki bo'lishi haqida so'z yuritildi.

Delegatsiyaning Samarqandga tashrifi davomida qadimiy va navqiron shaharning diqqatga sazovor joylariga ham sayohatlar tashkil etilib, mehmomlarni ta'lif va madaniyat o'chog'i bo'lgan o'lkamiz tarixi bilan ham tanishtirildi. Keng ko'lamba tashkil etilgan O'zbekiston va Tojikiston Oliy ta'lif muassasalarini rektorlarining II forumi ikki davlatning nafaqat ta'lif sohasida, balki azaliy do'stilik an'analarida ham yangi bosqichni boshlab berdi desak, mubolog'a bo'lmaydi.

## «PROFILAKTIK TIBBIYOT, KLINIK AMALIYOT VA EPIDEMIOLOGIYADA MOLEKULYAR DIAGNOSTIKANING ZAMONAVIY YUTUQLARI» MAVZUSIDAGI XALQARO ILMY-AMALIY ANJUMAN

11-aprel kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetida "Molekulyar diagnostikaning profilaktik tibbiyot, klinik amaliyot va epidemiologiyada zamonaviy yutuqlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishlashadi.

SamDTU tomonidan tashkil etilgan anjumanda Sankt-Peterburg, Moskva, Novosibirsk, Ufa, Siktivkar (Rossiya) va O'zbekistondan yetakchi olmlar, mutaxassislar, o'qituvchilar, shifokorlar, yosh olimlar ishtiroy etdilar.

Tantanali ochilish marosimida so'zga chiqqan Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Jasur Rizayev, Rossiya Federatsiyasi "Laboratoriya tibbiyoti federatsiyasi" uyushmasi prezidenti, professor Andrey Ivanov hamda "Vektor-Best" OAJ bosh direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari, t.f.d. Eduard Agletdinovlar tashkil etilgan konferensiyaning ahamiyati haqida gapirib, barcha ishtiroychilarga tabrik va tashakkurlarini bildirdilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyanadan asosiy maqsad molekulyar tibbiyotning dolzarb masalalarini muhokama qilish, klinik laboratoriya diagnostikasi, shuningdek, keng ko'lamdagiligi tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tajribasini almashishdan iborat



bo'lib, zamonaviy laboratoriya va klinik tibbiyotning eng dolzarb jihatlarini qamrab oldi.

Konferensiyaning asosiy qismida bir qator dolzarb masalalar muhokama markazida bo'ldi. Jumladan, "Visseral leyshmaniozni tashxislashning zamonaviy yondashuvlari va usullari", "Surunkali endometritini tashxislashda molekulyar tadqiqot usullarining imkoniyatlari", "Parazitoloyigida molekulyar biologik diagnostika usullari" va boshqa ko'plab mavzulardagi ma'ruzalar tinglandi.

Anjuman doirasida mehmomlar Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurib, universitetda yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lif tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, universitet tarixi muzeygiga ham sayohat uyuştilib, mehmomlar SamDTUning tashkil topishi va rivojlanishi bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman zamonaviy tibbiyotda, xususan, profilaktika va epidemiologiyada molekulyar

diagnostikaning ahamiyatini tatbiq etish, sohada xizmatni yanada rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari anjuman xalqaro ilmiy aloqalarining yanada mustahkamlanishi va Respublikamizda tibbiy xizmatning yanada zamonaviy lashuviga hissa qo'shadi desak mubolog'a bo'lmaydi.

## "TRAVMATOLOGIYA VA ORTOPEDIYANING DOLZARB MASALALARI"

2024-yil 18-aprel kuni universitetda "Travmatologiya va ortopediyaning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

SamDTU va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temir yo'l ijtimoiy xizmatlari" muassasasi tomonidan o'tkazilgan xalqaro anjumanda Hindiston, Rossiya va boshqa MDH davlatlari hamda O'zbekistondan sohaning yetakchi olmlar va mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, amaliyot shifokorlari hamda yosh olimlar ishtiroy etdilar.

Xalqaro konferensiyaning tantanali ochilishida SamDTU rektori, professor, Xalqaro ekologiya, inson xavfsizligi va tabiat fanlari akademiyasi a'zosi Jasur Rizayev, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temir yo'l ijtimoiy xizmatlari" muassasasi boshlig'i Muxsinjon Mamasiddikov, Samarqand viloyati sog'iqliqi saqlash boshqarmasi boshlig'i Suxrob Zayiev, Rossiya Federatsiyasi R.R.Vreden nomidagi ITM (Sankt-Peterburg) travmatologiya va ortopediya bo'limi mudiri, professor Dmitriy Ptashnikov va boshqalar ishtiroychilarga qutlov so'zlar bilan murojaat etib, travmatologiya va ortopediya sohasidagi yangi yutuqlarni muhokama qilishning dolzarbli hamda xalqaro ilmiy va amaliy hamkorlikni mustahkamlash, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yuksaltirishga hissa qo'shadi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida o'tkazilgan "Travmatologiya va ortopediyaning dolzarb masalalari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yuksaltirishga hissa qo'shadi.



## «RESPIRATOR TERAPIYA, O'SV, O'PKANING SUN'iy VA YORDAMCHI VENTILYATSIYASI REJIMLARINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI» MAVZUSIDAGI XALQARO ILMUY-AMALIY ANJUMAN

*5-6 aprel kunlari universitetda «Respirator terapiya, O'SV, o'pkaning sun'iy va yordamchi ventilyatsiyasi rejimlarining zamonaviy muammolari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.*

Anjumanda Samarcand davlat tibbiyot universiteti, Samarcand viloyat Sog'lioni saqlash boshqarmasi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Samarcand filiali, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish markazi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi, «Chirana Asia» Slovakiya-Rossiya-O'zbekiston qo'shma korxonasi, Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, hamda Rossiya, Slovakiya va O'zbekistonlik mutaxassislar ishtirot etdi.

Zamonaviy tibbiyotda anesteziologiya va

reanimatologiyaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan xalqaro anjumanni universitet rektori Jasur Rizayev olib berdi hamda tashkil etilgan konferensiyaning nechog'lilik ahamiyatli ekanini ta'kidlab, o'z fikrini o'tgan davr mobaynida insoniyat duch kelgan og'ir pandemiya bilan izohladi. So'zga chiqqanlar tibbiyotda mazkur soha mutaxassislarini yetuk va malakali qilib tayyorlash, sohada zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi haqida so'z yuritdilar.

Anjumanning asosiy qismida «O'pka sun'iy ventilyatsiyasi apparatlarining zamonaviy xususiyatlari va imkoniyatlari». «Zamonaviy narkoz-nafas apparatlarining tuzilishi, xarakteristikasi va imkoniyatlari». Ishemik insult va o'tkir nafas yetishmovchiligi bo'lgan




bemorlarda nafas olishni qo'llab-quvvatlash kabi bir qator dolzarb mavzulardagi ma'ruzalar tinglandi. Shuningdek, «O'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi va narkoz-nafas apparatni qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy uskunalar: qurilmalari va funksional xususiyatlari, klinik amaliyat» mavzusida mahorat darslari, Anesteziologiya va reanimatsiya bo'yicha yetakchi mutaxassislar ishtirotida respirator qo'llab-quvvatlash muammolari va dolzarb masalalarini muhokama qilish uchun davra suhbatlari tashkil etildi.

O'tkazilgan anjuman Respublikamiz sog'lioni saqlash tizimida anesteziologiya va reanimatsiya xizmatining yanada takomillashishiga hamda zamonaviy texnologiyalar, xorijiy tajribalarni qo'llashga turki bo'ladi desak mublag'a bo'lmaydi.



*Barcha sohada bo'lgani kabi tibbiyotda ham zamonaviy texnologiyalar va nazariyalarni qo'llash soha rivojiga ijobji ta'sir qilib, uning yanada ilgarilashiga sabab bo'ladi.*

## “SOG'LIQNI SAQLASHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR: ICHKI KASALLIKLARNI DAVOLASH UCHUN YANGI IMKONIYATLAR” III XALQARO ILMUY-AMALIY ANJUMANI BO'LIB O'TDI



Bugungi kunda mamlakatimizda sog'lioni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar zamirida xalq manfaati va uning sog'ligi yotibdi desak mublag'a bo'lmaydi.

5-aprel kuni universitetda “Sog'lioni saqlashda innovatsion texnologiyalar: ichki kasalliklarni davolash uchun yangi imkoniyatlar” III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Turli mamlakatlardan soha mutaxassislari ishtirot etgan anjuman ochilishida so'zga chiqqan SamDTU rektori Jasur Rizayev tobora ilgarilab borayotgan tibbiyotda innovatsion texnologiyalar va yangicha qarashlarning ahamiyati haqida so'z yuritib, tashkil etilayotgan mazkur konferensiyaning zamonaviy tibbiyotimizni

rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanini ta'kidladi. Ochilish doirasida Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasi rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor Aleksey Evgenievich Shklyaevga Samarcand davlat tibbiyot universiteti “Faxriy professori” unvoni topshirildi. So'zga chiqqanlar sog'lioni saqlashda innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq qilish, tibbiyotdagi zamonaviy yutuqlardan unumli foydalanish orqali soha rivojini ta'minlash, shuningdek, yuqori darajadagi ilmiy anjumanlar tashkil qilish orqali xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida so'z yuritdilar.

Ochilishdan so'ng anjuman o'z ishini onlayn va offlayn seksiyalarda davom ettirdi. Anjumanda kardiologiya, pulmonologiya, ftiziatriya, gastroenterologiya, endokrinologiya, revmatologiya, oilaviy tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha 130 dan ortiq dolzarb mavzudagi ma'ruzalar tinglandi. Shuningdek, «Yuqumli bo'lмаган kasalliklarni



## “RAHBAR VA YOSHLAR” UCHRASHUVI BO`LIB O`TDI

17-aprel kuni universitetda O`zbekiston Sog`liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi vakillari ishtirokida talabalar bilan “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi.

Uchrashuvda Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Jasur Rizayev, Samarqand viloyati sog`liqni saqlash boshqarmasi boshlig`i Suxrob Zayniyev, Jamoat xizmati Internasional Yevropa Federatsiyasi (YeFPOO) yoshlari kengashi hamraisi Alina Tankelyun, O`zbekiston Sog`liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisi Farxodjon Xanapiyyayev, Samarqand viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi raisi Suxrob Rafiqov hamda Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo, Qashqdaryo va Samarqand viloyatlari Sog`liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi viloyat Kengashi raislari ishtirok etdi.

Uchrashuv davomida O`zbekiston Sog`liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi haqida talabalarga ma`lumotlar berilib, uyushmaning asosiy maqsad va vazifalari, faoliyatga doir qiziqarli ma`lumotlar va amalga oshirilgan ishlari yuzasidan taqdimotlar qilindi. Uchrashuvda O`zbekiston Sog`liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi faoliyatiga talaba yoshlarni ham bevosita jalg qilish borasida so`z yuritilib, talabalar bilan ochiq muloqot tashkil etildi. Talabalar o`zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olish imkoniyatiga ega bo`ldilar.

Uchrashuv yakunida ishtirokchilarga O`zbekiston Sog`liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tomonidan kitoblar taqdim etildi.



## SAMDTU NEYROXIRURGLARI TURKIYANING ACIBADEM KLINIKASIDA MALAKA OSHIRDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi yetakchi mutaxassis, SamDTU Ko`p tarmoqli klinikasi neyroxirurgiya bo`limi mudiri X.Rajabov Turkiyaning Istanbul shahridagi Acibadem klinikasida o`tkazilgan o`quv-amaliy kurslarida qatnashib, malaka oshirib qaytdi.

Ushbu malaka oshirish kursi davomida X.Rajabov Neyroxirurgiyaning eng dolzarb yo`nalishlaridan hisoblanuvchi neyroonkologiya, spinal neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi va stereotaksik radioxirurgiya bo`yicha ma`ruzalarda, operatsiyalarda bevosita qatnashdi, zamonaviy apparaturalar bilan ishslash amaliyotini o`zlashtirdi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, SamDTU va Acibadem klinikasi o`rtasida o`zaro hamkorlik qilish bo`yicha memorandum imzolangan bo`lib, ushbu hamkorlik dasturlari doirasida universitetimizning Neyroxirurgiya kafedrasi va klinikasi mutaxassislari, klinik ordinatorlari va magistratura rezidentlari davriy ravishda ushbu xalqaro klinikalar tarmog`iga tegishli shifoxonalarda amaliyot tajribalarini oshirib bormoqdalar.

## SAMDTU TALABALARI XALQARO OLIMPIADA SOVRINDORLARIGA AYLANDI

11-13 aprel kunlari Rossiyaning Voronej davlat tibbiyot universitetida «Tibbiyot va tillar: madaniyatlar chorrahaside» shiori ostida chet tillar bo`yicha XI xalqaro Olimpiada tashkil etildi.

Xalqaro olimpiadada turli davlatlardan kelgan talabalar bir nechta tillarda o`z bilim va ko`nikmalarini sinovdan o`tkazdilar. Jumladan, Samarqand davlat tibbiyot universitetining bir guruh talabalari ham universitet tillar kafedrasi bilan birgalikda olimpiadada ishtirok etib, sovrin o`rinlarni qo`lga kiritdilar.

Xususan, Umarova Zarina Qahramon qizi (davolash fakulteti) III-o`rin, Muhiddinov Sardor Muhiddin o`g`li (davolash) fakulteti, Shodmonov Diyorbek Obid o`g`li (davolash fakulteti), Elnazarov Otabel To`lqin (stomatologiya fakulteti), Ergasheva Firuza Otabekovna (stomatologiya fakulteti) faxrlil o`rinlar va nominatsiyalar bo`yicha taqdirlандilar.



### ДИПЛОМ

в номинации

Народное

*Захидова Руяра Олжасовна*  
бюджетное и номинальное «Лечебные и диагностические»  
XI международной олимпиады по интегрированным языковым  
программам и языку бача спорта-математики  
«Медицина и языки»  
11-13 апреля 2024 года  
в Воронеже

## SAMDTU XODIMLARI RESPUBLIKA ILMIY- AMALIY SEMINARIDA ISHTIROK ETDI

29-mart kuni O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislar tayyorlash markazining «Jismoniy tayyorgarlik va sport» sikli tomonidan «Harbiy xizmatchilarini jismoniy rivojlantirish dolzarb muammolari va ularning yechimi» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari o`tkazildi.

Ushbu ilmiy-amaliy seminarda Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti psixolog D.Djuraeva, «Jamoat salomatligi va sog`liqni saqlash menejment» kafedrasining professor-o`qituvchilari D.Alimjanova, S.Israilova, X.Xakimovalar ham o`z ma`ruza va maqolalari bilan faol ishtirok etdilar.

Seminar yakunida universitet professor-o`qituvchilariga sertifikatlar topshirildi.



## KOICA AGENTLIGI BILAN HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining

"O'zbekistonda kasb-hunarga o'qitish imkoniyatlarini rivojlantirish" loyihasi doirasida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) ishtirokida Samarcand shahrida Kasb-hunarga o'qitish markazi tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda bir qator grantli loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

17-aprel kuni universitetga KOICA agentligining O'zbekistondagi ofisi direktori o'rinnbosari Kim Taehun hamda agentlik vakili Atham Mamatqulov tashrif buyurdi. Mehmonlarni rektor Jasur Rizayev qabul qildi. Muzokaralar davomida o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Jumladan, kelgusida hamshiralar tayyorlashda qo'shma dasturlar orqali hamkorlikni yolga qo'yish borasida muzokaralar olib borildi.

Ma'lumot o'rinda ayish mumkinki, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) 1991-yil 1 – apreda Koreya Respublikasining bir bo'limi sifatida tuzilgan bo'lib, u rivojlanayotgan davlatlarga beg'araz yordam dasturlarini amalga oshirishga javobgardir.

KOICAning O'zbekistondagi ofisini 1995-yilda ochilganidan bugungi kungacha ko'plab loyihalar amalga oshirilib, 1400 ga yaqin o'zbekistonlik mutaxassislar Koreyada stajirovkada bo'lib qaytdilar va 403 ko'ngillilar KOICA loyihalari doirasida O'zbekiston Respublikasiga jo'natildilar.

## UNIVERSITET XORIJYIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRMOQDA

5-aprel kuni universitetga sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yurituvchi "Rossiya gastroenterologlari ilmiy jamiyati" Butunrossiya jamoat tashkiloti va "Uzlusiz tibbiy ta'lim instituti" (Moskva, Rossiya Federatsiyasi) vakillari tashrif buyurdi.

Mehmonlarni rektor Jasur Rizayev qabul qildi va muzokaralar davomida o'zaro manfaati hamkorlikni kengaytirish yo'llari muhokama qilindi.

Muzokaralar yakunida Samarcand davlat tibbiyot universiteti bilan "Rossiya gastroenterologlari ilmiy jamiyati" Butunrossiya jamoat tashkiloti hamda "Uzlusiz tibbiy ta'lim instituti" o'tasida hamkorlik to'g'risidagi uch tomonlama memorandum imzolandi. Imzolangan kelishuv malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish, akademik almashinuvlarni faollashtirish, hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borishga xizmat qiladi.

DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



STATE MEDICAL UNIVERSITY

DAVLAT  
TIBBIYOT  
UNIVERSITETI



STATE  
MEDICAL  
UNIVERSITY



## O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASI SAMARQAND VILOYAT KENGASHI XODIMLARI BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

3-aprel sanasida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyat kengashi xodimlari va Samarcand davlat tibbiyot universiteti xodimlari hamda talaba yoshlari bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyat kengashi raisi Suxrob Rafikov, SamDTU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori E.Tangirov, Samarcand davlat tibbiyot universiteti kasaba uyushma boshlang'ich tashkiloti raisi Y.Allayarov, universitet xodimlari hamda talabalar ishtirot etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan viloyat kengashi raisi Suxrob Rafikov bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamlari islohotlar, yoshlarga yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar haqida so'z yuritib, yoshlarni bunday imkoniyatlardan unumli foydalanishga chaqirdi. Shuningdek, kasaba uyushmalari tizimida yoshlar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar xususida yig'ilganlarga ma'lumot berildi.

Uchrashuv so'ngida SamDTU ning bir guruh faol xodimlari hamda talabalariga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyat kengashi tomonidan esdalik sovg'alari hamda Xorazm viloyatiga yo'llanma olish imkonini beruvchi sertifikatlar taqdim etildi.



## SHINJON TIBBIYOT UNIVERSITETI REKTORIGA FAXRIY PROFESSOR UNVONI BERILDI

Samarcand davlat tibbiyot universiteti hamda Xitoyning Shinjon tibbiyot universiteti o'ttasida hamkorlik aloqalarini o'rnatilgan bo'lib, 29-mart kuni Shinjon tibbiyot universiteti delegatsiyasi Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurdi.

Universitet rektori, professor Xaji Akber Aisa, Uyg'ur avtonom rayoni Sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Yuy Aypin hamda bir guruh soha vakillaridan iborat mehmonlarni rektor Jasur Rizayev kutib oldi.

Tashrif davomida Xitoy delegatsiyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda universitetdagi ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, ikki oliyogh o'tasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv so'ngida Shinjon tibbiyot universiteti rektori Xaji Akber Aisaga "Samarqand davlat tibbiyot universiteti faxriy professor" unvoni topshirildi. Yakunda so'zga chiqqanlar o'zaro hamkorlikning ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritib, kelgusidagi istiqbolli loyihalarga katta umid bog'ladilar.

# UNIVERSITET TARIXI MUZEYIDAGI TILAKLAR KITOBIDAN



Он шенса ажнивистраги, ковекчуба и образованческа Императорской государственной медицинской академии вораксато искренинга багодарлисигъ да друмдэг и сурхуминеъттун тубокувашсану газибз ёништанинчи и яланг заманавуз Самаркандского государственного медицинского университетте!

Дороне камчи, крепкого ваку здоровоъ и удачъ во благо пребывания вашему бүзге!

06.04.2024г.

Ректор Императорской РМА: Самир (А.Е. Шакиров)

Бирекрасному Университетчу с великим прошлоим и не менее великим настоящим осенюю праубедами, разынчий и благонолучий!

Университет эди, в первую очередь, люди, и атмосфера Университета распологает и разынчит талантлив, воспитанных человеческих ичности!

Успехов, новых научных открытий, талантливых и привлекательных студентов, а выпускникам - спасённых жизней!

С уважением,

ректор Тамбовского государственного университета имени Г.Р. Державина

23.04.2024.



## SOHIBQIRON XOTIRASIGA EHTIROM!

9-aprel – Amir Temur tavalludining 688 yilligi munosabati bilan Sohibqiron haykali o'rnatilgan yodgorlikka gul qo'yish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi ham ishtirok etib, ulug' bobokalonimiz haykali poyiga gullar qo'yildilar. Shuningdek, fakultet talabalariga buyuk bobokalonimiz va butun Temuriylar tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar berildi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

## STOMATOLOGIYA SOHASIDA TALABALAR ORASIDAGI XALQARO TANLOVNING MINTAQAVIY BOSQICHI O'TKAZILDI

13-aprel kuni universitetda professor V.N.Kopeykin xotirasiga bag'ishlangan ortopedik stomatologiya sohasida talabalar ilmiy tadqiqotlari I xalqaro tanlovning mintaqaviy bosqichi tashkil etildi.

Tanlovda tibbiyot oliy o'quv yurtlарининг «Ortopedik stomatologiya» kafedra mudirlари hakam sifatida ishtirok etdilar. Ochilishda so'zga chiqqan Stomatologiya fakulteti dekani A.Axmedov tanlovning ahamiyati haqida ta'kidlab, barcha ishtirokchilarga omad tiladi.

Xalqaro tanlovda Toshkent Davlat Stomatologiya Institut, Buxoro Davlat Tibbiyot Institut, Andijon davlat tibbiyot instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalarini onlayn va oflays ishtirok etdi. Tanlovda talabalar tomonidan «Ortopedik va ortodontik tuzilmalarning temporomandibulyar bo'g'imga ta'sirining xususiyatlari», «Protezlashdan oldingi periodontal yallig'lanish kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari», «Ortopedik stomatologiya amaliyotida elektron diagnostika modeldaridan foydalishning klinik ahamiyati» va boshqa bir qator dolzarb masalalar yuzasidan ma'ruzalar qilindi.

Yakunda g'olib va sovrindorlar aniqlanib, sertifikatlar taqdim etildi.





## 2-SON DAVOLASH ISHI FAKULTETINING IQTIDORLI TALABALARI TAQDIRLANDI

*Universitetda tahlil olib kelayotgan talabalarning o'z bilim va salohiyatlarini, iqtidorlarini namoyon etishlari uchun ko'plab tanlovlar va tadbirlar, ilmiy musobaqalar tashkil etib kelinadi.*

Yil davomida o'z bilimi va faoliigi bilan namuna bo'la olgan talabalar universitet tomonidan munosib taqdirlanadi. 3-aprel kuni universitet 2-son davolash fakultetida "Dekan va talabalar uchrashuvu" bo'lib o'tdi. Uchrashuvda fakultet dekani Obid Abdurahmonovich Hamidov talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazib, ularning ta'lif jarayonlari haqidatifik va mulohazalari va savollari yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, uchrashuv davomida fakultetda o'qishi davomida tengdoshlari orasida o'zining iqtidorli va faol yaratuvchanligi, izlanuvchanligi hamda 2022-2023-o'quv yili davomida barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirganligi uchun fakultet midyosida o'tkazilgan "YIL TALABASI" tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar munosib taqdirlandi. Jumladan, Murodxon Kamolov, Janobiddin Fazliddinov, Oybek Ochilov, Ramiz Shavazi hamda Zarina Umarovalar turli nominatsiyalar bo'yicha munosib deb topilib, ularga diplom va ko'krak nishonlari topshirildi.

Tadbirda ijro etilgan raqslar va kuy-ko'shiqlar barchaga bayramona kayfiyat ularshdi.



# SHIFOKOR SO'ZI

## «MEHR-MURUVVAT – YUKSAK FAZILAT»

*Xayr sahovat yuksak tuyg'u, ulug' fazilat bo'lib, Insonni ulug'laydi.*

Keksalarni e'zozlash, bemorlar holidan xabar olish, mehr-muruvvat, xayr-sahovat ko'rsatish azaldan ezgu an'analarimiz hisoblanib kelgan.

SamDTU xotin qizlar maslahat kengashi faollari tomonidan universitetimizda ko'p yillar samarali mehnat qilgan va bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan mehnat faxriylari, ustozlar va xodimlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj talaba qizlar, bemorlar holidan xabar olindi, ulug' ayyomlar bilan muborakbos etildilar.

Maxsus maktab internat tarbiyalanuvchilari va talaba qizlar uchun Iftorliklar tashkil etilib, ezgu niyatlar bildirildi, dildan suhabatlar qurildi.



## ARM WRESTLING BO'YICHA "REKTOR KUBOGI" MUSOBAQASI O'TKAZILDI

*Universitetda sog'igom turmush tarzini rivojlantirish, talaba-yoshlarni sportga qiziqtrish maqsadida doimiy ravishda sport musobaqalarini, turnirlar tashkil etib kelinadi.*

18-aprel kuni ham talaba yoshlar o'rtaida "Besh tashabbus" hamda "Talabalar ligasi" bahsleri doirasida Arm Wrestling bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Qiziqarli va murosasiz kechgan bellashuvlarda yigitlar turli vazn toifasida o'zlarining kuchlarini sinab ko'rildilar. Saralash natijalariga ko'ra har bir vazn toifasidan g'olib va sovrindorlar hamda mutlaq "Rektor kubogi" sohibi aniqlanib rektor Jasur Rizayev tomonidan munosib taqdirlandilar.



Tantanali taqdirlash marosimida so'zga chiqqan Jasur Rizayev tashkil etilgan mazkur turnirning sog'iomlashtirish tadbirlari doirasida ekanligi hamda sog'ilik garovi bo'lgan sportning har qanday turini keng targ'ib qilish ijobji samara berishi haqida so'z yuritib, g'oliblarni tabrikladi.

## «IBN SINO IZDOSHLARI» KEYINGI BOSQICHDA!

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti «Ibn Sino izdoshlari» talabalar teatr studiyasi jamoasi «Ma'rifat maydoni» Respublika ko'rlik tanlovining 2-hududiy bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, keyingi bosqichga yo'l oldi.*

Ma'lumot uchun, 2-hududiy bosqichida SamDCHTI III; SamDAQI jamoasi esa II o'rinni qo'lga kiritdi.

Universitetimiz jamoasiga keyingi bosqichda omad tilaymiz!



### «KITOBXONLIK-BUYUK KELAJAK POYDEVORI» MAVZUSIDA TADBIR O`TKAZILDI

*Yoshlarimizni milliy o`zlikni anglash ruhida kamol toptirish asosiy vazifamiz sanaladi.*

Joriy yilning 3-aprel kuni Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti, Tibbiy biologiya va genetika kafedrasi tashabbusi bilan yoshlarni kitobxonlikka qiziqishini oshirish maqsadida 3-son TTJda «Kitobxonlik-buyuk kelajak poydevori» mavzusida tadbir o`tkazildi.

Tadbirda talabalar o`zları o`qigan badiiy asarlar yuzasidan fikr va mulohazalarini bayon etib, yod olgan she`rlarini ijro qildilar. Tadbir so`ngida faol ishtirok etgan talabalarga diplomlar topshirildi.



### «ILMLI AYOL - MAMLAKAT TAYANCHI - MILLAT TARBIYACHISI»

SamDUda «Ilmi ayol - mamlakat tayanchi - millat tarbiyachisi» shiori ostida targ'ibot tadbiri tashkil etildi.

Xotin-qizlar kengashi faollari, DKTF oilaviy va preventiv tibbiyat, bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi hamda Janubiy Qozog'iston Tibbiyot Akademiyasi olimalari ishtirokida o`tkazilgan tadbirda yurtimizda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha jarayonlarida ularning rolini oshirish, sifatlari ta'limga olishlariga qaratilgan tizimli Islohotlar targ'ib qilindi, hamda ilm, ma'rifatli xotin qizlar, shifokorlar mamlakat kelajagini mustahkam poydevori ekanligi to'g'risida fikrlar bildirildi.



### «ISTE'DODLI QIZLAR - MILLAT TAYANCHI»

Talaba qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, Iste'dodlari yuzaga chiqarish, kitobxonlikni targib qilish va ma'nnaviyatini yuksaltirish orqali turli yot illatarga qarshi kurashchanligini oshirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

17-aprel kuni SamDU 3 - son TTJda stomatologiya fakulteti talaba qizlari o'ttasida «Iste'dodli Qizlar - Millat Tayanchi» mavzusida bellashuv o`tkazildi.

Unda qizlar rasm chizish va kitob mutoaalasi borasida o`zaro bellashdilar, shuningdek, qizlarnig rasm chizish borasidagi iste'dodlari va kitobsevarliklari, kitobxonlikni keng targib qilishda qo'shayotgan hissalari odilona baholanib, Toshpulatova Kamola 1- o'rin, Qodirqulova Dilshoda 2-o'rin, Rabbimov Nafisa 3-o'rinni qo'lga kiritishdi hamda tashkilotchilar tomonidan esdalik sovgalar bilan taqdirlандilar.



### NE'MATJON XODJAYEV XOTIRASI QALBIMIZDA ABADIY YASHAYDI

xotira

9-aprel kuni tanqli shifokor, mahoratlari rahbar Ne'matjon Isomovich Xodjayev olamdan o'tdi.



Ne'matjon Xodjayev 1949-yil 21-mayda Samarqand shahrida tug'ilgan. 1967-yilda Samarqand shaharidagi 21-son o'rta maktabni "Oltin medal" bilan tugatib, Samarqand davlat tibbiyat institutining davolash fakultetiga o'qishga kirdi. 1973-yilda mazkur oliy ta'lim dargohni a'lo baholar bilan bitirib, davolovchi vrach ixtisosligini oldi. 1973-1974-yillarda davomida internatura ta'limi olib, vrach-terapevt mutaxassisligi sohibi bo'ldi. Umrining yarmidan ko'p yillarini asta asta ko'tarilgan zinalar bilan turli bosqichdagি rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Ne'matjon Isomovich Xodjayev 1979-1993-yillarda Samarqand tumani Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi bosh vrachi, tuman Bosh davlat sanitariya vrachi, 1993-1998-yillarda Samarqand tuman hokimining ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rindbosari, Samarqand tuman markaziy shifoxonasi bosh vrachi, 1998-2006-yillarda Samarqand viloyat Bosh davlat sanitariya vrachi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi bosh vrachi vazifalarida ishladi.

Ne'matjon Isomovich 2006-2009-yillarda viloyat hokimligi sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritib, aholiga yuqori malakali, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish, tibbiyat muassasalarining moddiy texnika bazasini musathkamlash hamda profilaktika ishlarining samaradorligini oshirish borasidagi ishlarga katta hissa qo'shdi.

2005 - 2015 yillarda Samarqand davlat tibbiyat instituti o'rindoshlik assistenti, 2015-yil Samarqand davlat tibbiyat instituti «Ijtimoiy salomatlik, umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi mudiri, 2015 - 2022 yillarda Samarqand davlat tibbiyat universiteti diplomdan keyingi ta'lim fakulteti ijtimoiy salomatlik va sog'liqni saqlash tashkillashtirish kafedrasi o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan.

Ne'matjon Xodjayev viloyatimizda yuqori malakali tibbiyat xodimi sifatida zamonaviy bilimga ega tibbiyat xodimlarini tayyorlash, sog'lomlashtirish-profilaktik tadbirlar sifatini yuksaltirish borasida samarali ish olib borgan tajribali rahbar edi.

Ne'matjon Isomovich viloyatimizda sog'liqni saqlash tizimini xalqaro andozalar asosida rivojlantirish, aholi salomatligini ishonchli muhofaza qilishga qo'shgan munosib hissasi hamda ijtimoiy hayotdagи faol ishtiroki uchun Orden va «Sog'liqni saqlash a'lochisi» hamda bir qator boshqa ko'krak nishonlar sohibi bo'ldi.

Samarqand davlat tibbiyat universiteti jamoasi hamda viloyat tibbiyat xodimlari nomidan marhumning oila a'zolari va shogirdlariga hamdardlik bildiramiz.

SamDTU Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi hamda Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi Samarqand filiali bilan birgalikda 2024-yil 1-may kuni soat 8:00 da Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti, reproduktiv salomatlik fanlaridan 1-soni Davolash ishi fakultetining 416-420 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish".

**Ma'ruzachilar:** Katta o'qituvchi X.Xakimova hamda Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi Samarqand filiali direktori U.M.Boboraximova.

**Manzil:** Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi 25 ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, magistrler, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudirlari:** PhD., dotsent Z.Z.Aminov va Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi Samarqand filiali direktori U.M.Boboraximova.

SamDTU Ichki kasalliklar propedevtikasi hamda 1-son Ichki kasalliklar kafedralari 2024-yil 2-may kuni soat 08:00 da Ichki kasalliklar propedevtikasi va Patologik anatomiya fanlaridan Pediatriya ishi fakultetining 226-229 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Krupoz zotiljam. Krupoz zotiljam diagnostikaning klinik va patologanatomik aspektlari".

**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova hamda t.f.n., dotsent F.M.Xamidova.

**Manzil:** Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova hamda t.f.n., dotsent F.M.Xamidova.

SamDTU DKTf Nevrologiya hamda Pediatriya va umumiy amaliyot kafedralari 2024-yil 3-may kuni soat 10:30 da Nevrologiya va Pediatriya fanlaridan shifokor-tinglovchilar, klinik ordinator, nevrologlar, pediatrlar uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Головная боль у детей". ("Болаларда бosh og'rig'i")

**Ma'ruzachilar:** T.f.d., dotsent S.Z.Xakimova hamda t.f.n., dotsent N.A.Rasulova.

**Manzil:** SamDTU DKTf Nevrologiya kafedrasi ma'ruba zali (Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi Ogahiy ko'chasi 54).

**Taklif qilinganlar:** Nevrologiya, Pediatriya kafedralari tinglovchilar va shifokorlari, ushu mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., dotsent S.Z. Xakimova hamda t.f.d., professor R.X.Sharipov.

SamDTU Ichki kasalliklar propedevtikasi va Patologik fiziologiya kafedralari 2024-yil 3-may kuni soat 11:10 da Ichki kasalliklar propedevtikasi va Patologik fiziologiya fanlaridan 1-son Davolash ishi fakultetining 216-220 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Bronzial astma. Diagnostikaning klinik va patofiziologik aspektlari".

**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova hamda t.f.d., professor G.U.Samiyeva.

**Manzil:** Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova hamda t.f.d., professor G.U.Samiyeva.

SamDTU Pediatriya hamda 1-son Otorinolaringologiya kafedralari 2024-yil 10-may kuni soat 9:35 da Pediatriya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 326-330 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Заболевания верхних дыхательных путей. Тактика педиатра и оториноларинголога" ("Yuqori nafas yo'llari kasalliklari. Pediatria va otorinolaringolog taktikasi")

**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent L.M.Garifulina hamda t.f.d., professor N.J.Xushvaqtova.

**Manzil:** Davolash fakulteti Pediatriya kafedrasi ma'ruzalar zali

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari.

**Kafedra mudiri:** T.f.n., dotsent L.M.Garifulina hamda t.f.d., professor N.J.Xushvaqtova.

SamDTU Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti hamda Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedralari 2024-yil 11-may kuni soat 9:35 da Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash

menejmenti, fizika, biofizika va tibbiy fizika fanlaridan 1-son Davolash ishi fakultetining 411-415 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Tibbiyot statistikasi asoslari".

**Ma'ruzachilar:** Katta o'qituvchi Sh.A.Mamasoliyeva hamda PhD., dotsent Sh.U.O'roqov.

**Manzil:** Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, magistrler, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudirlari:** PhD., dotsent Z.Z.Aminov hamda PhD., dotsent Sh.U.O'roqov.

SamDTU Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti hamda Gigiiena va ekologiya kafedralari 2024-yil 13-may kuni soat 8:00 da Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti, Gigiiena va ekologiya fanlaridan Tibbiy pedagogika, olyi hamshirlik ishi va xalq tabobat fakultetining 410-414 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Sog'lim turmush tarzi va uni shakkllantirish".

**Ma'ruzachilar:** Katta o'qituvchi S.B.Israilova hamda katta o'qituvchi R.Sh.Baratova.

**Manzil:** Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, magistrler, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudirlari:** PhD., dotsent Z.Z.Aminov hamda t.f.d., professor B.E.Tuxtarov.

SamDTU 3-son Ichki kasalliklar hamda Gematologiya kafedralari 2024-yil 14-may kuni soat 13:10 da 3-son Ichki kasalliklar hamda Gematologiya fanlaridan 1-son Davolash ishi fakultetining 316-320 va 401-405 guruhlar talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Surunkal yurak yetishmoschligi va qon ivish tizimi ko'rsatkichlarini o'zgarishi, diagnostik ahamiyati".

**Ma'ruzachilar:** PhD., assistant M.M.Ergashova hamda t.f.n., dotsent A.K.Abdiev.

**Manzil:** Gematologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., professor G.Z.Shodikulova hamda PhD. L.S.Maxmanov.

SamDTU Nevrologiya kafedrasi hamda Yuqumli kasalliklar kafedralari 2024-yil 15-may kuni soat 09:35 da Nevrologiya fanidan Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va biologiya fakultetining 401-404 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Markaziy asab sistemasining yallig'lanish kasalliklari".

**Ma'ruzachilar:** T.f.d., dotsent Sh.T.Niyozov hamda t.f.n., dotsent A.O.Zoqizulov.

**Manzil:** SamDTU ko'p tarmoqli kliniki nevrologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, klinik ordinatorlar, magistrler TIJga a'zo talabalari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., professor A.T.Djurabekova hamda DSC., dotsent N.A.Yarmuhamedova.

SamDTU Pediatriya kafedrasi hamda Patologik fiziologiya kafedralari 2024-yil 16-may kuni soat 9:35 da Pediatriya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 326-330 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Неврологические кардиты у детей. Аритмии у детей". ("Болаларда норевматик кардитлар. Болалarda aritmialari")

**Ma'ruzachilar:** T.f.d., dotsent S.K.Rasulov hamda t.f.n., dotsent D.S.Haydarova.

**Manzil:** Davolash fakulteti Pediatriya kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari.

**Kafedra mudirlari:** T.f.n., dotsent L.M.Garifulina hamda t.f.d., professor G.U.Samiyeva.

SamDTU Endokrinologiya hamda Onkologiya kafedralari 2024-yil 16-may kuni soat 11:10 da Endokrinologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 411-415 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Qalqonsimon bez xavfli o'smalari".

**Ma'ruzachilar:** PhD., assistant A.E.Qodirov hamda PhD., dotsent Sh.Sh.Shanxona.

**Manzil:** SamDTU Endokrinologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, klinik ordinatorlar, magistrler, TIJga a'zo talabalari, o'quv bo'limi

va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudirlari:** PhD., G.Sh.Negmatova, PhD., dotsent F.G.O'lmasov.

SamDTU 3-son Akusherlik va ginekologiya hamda Ichki kasalliklar kafedralari 2024-yil 17-may kuni soat 10-05 da Akusherlik va ginekologiya hamda Endokrinologiya fanlaridan 2-son Davolash ishi fakultetining 601-605 guruh talabalari, magistr va klinik ordinotorlar uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Bepusht nihoh. Ayollar bepushtligining endokrinologik aspektlari".

**Ma'ruzachilar:** PhD., assistant G.N.Indiamanova hamda assistant D.S.Sobirova.

**Manzil:** SamDTU 3 son akusherlik va ginekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, klinik ordinotorlar, magistrler, TIJga a'zo talabalari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudirlari:** DcS., dotsent N.N.Shavazi hamda PhD., G.Sh. Negmatova.

SamDTU Umumiy gigiyena va ekologiya hamda Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejment kafedralari 2024-yil 27-may kuni soat 11:10 da Gigiyena va ekologiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 306-310 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Sog'lim turmush tarzining gigiyenik asoslari".

**Ma'ruzachilar:** Katta o'qituvchi S.B.Israilova hamda katta o'qituvchi S.B.Israilova.

**Manzil:** Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra professor-o'qituvchilar, o'quv bo'limi.

**Kafedra mudirlari:** T.f.d., professor B.T. To'xtarov hamda PhD., dotsent Z.Z.Aminov.

SamDTU Psixiatriya, tibbiy psixologiya va narkologiya kafedrasi hamda Pedagogika-psixologiya kafedralari 2024-yil 30-may kuni soat 09:35 da Tibbiy psixologiya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 329-330 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Психосоматическая медицина. Невротические расстройства, депрессия". ("Psixosomatik tibbiy. Nevrotik bushilishlar, depressiya")

**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent A.S.Velilyayeva hamda PhD., dotsent v.v.b. A.O.Qo'chqorova.

**Manzil:** Psixiatriya, tibbiy psixologiya va narkologiya kafedrasi ma'ruba zali.

**Taklif qilinganlar:** Pedagogika-psixologiya kafedrasi assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari.

**Kafedra mudirlari:** T.f.n., dotsent A.S.Velilyayeva hamda E.S.Tangiroy.

### SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LN QILADI

1-son davolash fakulteti

**2-son otorinolaringologiya kafedrasi, dotsent lavozimiga**  
- 1 o'rinn.

**Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti**

**Fiziologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn;**  
**Patologik fiziologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn;**

**Odam anatomiyasi kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn;**  
**Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn;**

**Gigiyena kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn.**

**Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovida fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.**

**Katta o'qituvchi, assistant yoki stajyor assistant lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha olyi ma'umotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.**

Hujjatlar e'lon qilingan kundan bosqishab bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

**Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

**INDEKS: 5539**

**MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.  
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75  
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz**

**Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.**

**Nashrga ruxsat berildi: 2024-yil, 24-aprel. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 37**

**Tahririyat raisi:**

**J.A. RIZAYEV**

**Bosh muharrir:**

**E.S. TANGIROV**

**Tahrir hay'ati:**

**G'.U.Lutfullayev,**

**S.A.Karabayev,**

**A.A.Axmedov, J.F.Kadirov,**

**B.E.To'xtarov, F.A.Daminov,**

**S.E.Mamaradjabov,**

**N.M. Shavazi, O.A.Xamidov,**

**D.Sh.Abdujaxmanov**

**SHIFOKOR SO'ZI**

**Nashr uchun mas'ul:**

**O. Muratov**

**Operator va sahifalovchi:**

**A. Xolboyev**

**Fotomuxbir:**

**O.Axmedov**



**Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

**INDEKS: 5539**

**MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.  
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75  
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz**

**Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi**